O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/.30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ANORBOYEV AMIRIDDIN ULUG‘BEK O‘G‘LI

JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID SOLUVCHI KIBERJINOYATLARNING JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 343.140.02:004.9

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/.30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ANORBOYEV AMIRIDDIN ULUG‘BEK O‘G‘LI

JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID SOLUVCHI KIBERJINOYATLARNING JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Yuridik fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Yu235 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) «ZiyoNET» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Urazaliyev Murod Korayevich** yuridik fanlar doktori, professor
	Turg‘unboyev Elbekjon Odiljonovich yuridik fanlar doktori
	Akrom Ikromovich Toshpo‘latov yuridik fanlar doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12-dekabr kuni soat 11-00.dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (+998971) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-50, info@mgjxu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:100121, Toshkent., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (+99871) 230-32-71; faks: (+99871) 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 28-noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 28-noyabr kunidagi 21-raqamli reyestr bayonnomasi)

D.M.Mirazov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisining o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

J.D.Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.X.Zulfiqarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISh (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyodagi barcha sohalar va tarmoqlarni raqamlashtirish, axborot tizimlari va resurslari, muhim axborot infratuzilmalari, telekommunikatsiya, shu jumladan, butun jahon internet tarmog‘i, shaxsga doir ma’lumotlar bazalari, axborotlashtirish va telekommunikatsiya infratuzilmasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, sun’iy intellekt, kiber-, nono-, bio- va boshqa texnologiyalar hamda texnik vositalarning keyingi rivojiga kiberjinoyatlar katta xavf solmoqda va buning oqibatida jamoat xavfsizligi tahdid ostida qolmoqda. Hozirda, 2023-yilda har 39 soniyada, hozirda esa, **har 14 soniyada bitta kiberhujum** sodir etilib[1], boshqa manbalarda esa, **har soniyada** kiberhujum amalga oshirilib[2], buning oqibatida 2023-yilda dunyodagi 71 foiz tashkilotlar tovlamachilik dasturlari qurboni bo‘lishgan bo‘lsa, hozirda barcha kiberxavfsizlik hodisalarining 80 foiz qismi jinoiy guruhlar bilan bog‘liq[3]. Jahon iqtisodiyotiga yetkazilgan zarar miqdori esa, 2018-yilda 3 trln. dollar, 2019-yilda 3,5 trln. dollar, 2020-yilda 4,2 trln. dollar, 2021-yilda 6 trln. dollar, 2022-yilda 7 trln. dollar, 2023-yilda 8,4 trln. dollar, 2024-yilda 9,5 trln. dollarni tashkil etgan[4] bo‘lsa, 2025-yilda **10,5 trln. dollar**[5], 2026-yilda **20 trln. dollar**, 2027-yilda 22 trln. dollar, 2028-yilda 24 trln. dollar, 2029-yilda 26 trln. dollarni tashkil etishi tahmin qilinmoqda[6]. Ko‘rib o‘tilganidek, kiberjinoyatlarning keltirayotgan zarar miqdori 2026-yilga kelib ikki barobarga ko‘paymoqda va bu esa, zudlik bilan barcha dunyo davlatlari hamjihatlikda xalqaro transchegaraviy jinoyat bo‘lgan kiberjinoyatlarga qarshi birgalikda kurashish va bu sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirish zarurligini taqozo etmoqda.

Jahonda kiberjinoyatlar tufayli ro‘y beradigan iqtisodiy inqirozlarning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta’minlash yuzasidan dunyo davlatlari xalqaro hujjatlar asosida ushbu kibertranschegeraviy jinoyatlarga qarshi yalpi kurashish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishmoqda, ushbu kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun ta’lim tizimida keskin islohotlar o‘tkazilib, kiberxavfsizlikka ixtisoslashtirilgan mutaxassislar yetishtirilmoqda, maxsus labaratoriya, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlarini tashkil qilishmoqda, kiberhodisalarni oldindan prognoz va tahlil qilish uchun sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan «*aqlli tizim*»lardan foydalanishmoqda, kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xayriya, grant va byudjet mablag‘larini ajratishmoqda, transchegaraviy munosabatlarda qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va o‘zaro birxillashtirish orqali ularni tizimlashtirish, texnik va texnologik jarayonlardan tortib, yuridik masalalargacha yagona huquqiy-texnik

[1] https://www.datensicherheit.de/2024-2025-cyber-attack-companies-14-seconds.
[2] https://cybermap.kaspersky.com/ru/stats.
[3] https://www.websiterating.com/ru/blog/research/cybersecurity-statistics-facts/#sources.
[4] https://newsletter.radensa.ru/archives/4840.
[5] https://www.cenlanow.com/business/press-releases/ein-presswire/674883055/cybercrime-damages-to-cost-the-world-9-5-trillion-usd-in-2024/.
[6] https://www.statista.com/forecasts/1280009/cost-cybercrime-worldwide#:~:text=The%20global%20cost%20of%20cybercrime,trillion%20U.S.%20dollars%20in%202022.

amaliyotni yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rishmoqda. Shu sababli kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi bilan bir qatorda jamoat xavsizligi va kiberxavsizlikni ta’minlash yuzasidan ilmiy-amaliy yechimlarni topish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Respublikamizda ham jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar bilan zarur islohotlar amalga oshirib borilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda xavfsiz kibermuxit, shu jumladan, kibermakonni yaratish maqsadida 2017-2025-yillar davomida 150 ga yaqin qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, 500 ga yaqin keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq raqamli texnologiyalarning keyingi rivoji, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun javobgarlikning yetarli darajada jinoyat qonunchiligimizda aniq belgilanmaganligi va bu borada hali hamon “*huquqiy bo‘shliqlar*”ning mavjudligi “*latent*” kiberjinoyatlarning vujudga kelib, ularning soni, turi, keltirilgan zarar ko‘lami kundan-kunga oshib ketishiga, huquqni qo‘llash jarayonida “*kollizion holatlar*” ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Birgina, statistik ma’lumotlarga asosan, O‘zbekiston Respublikasida 2020-yilda 863 ta, 2021-yilda 785 ta, 2022-yilda 7570 ta, 2023-yilda 6 450 ta, 2024-yilda 58 800 ta qilmish axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilganligi ro‘yxatga olingan bo‘lsa, bu borada kiberjinoyatlar soni 2020-yilga qaraganda 2024-yilda tahminan **68,13** barobarga ko‘tarilgan. Bu esa, o‘z navbatida bu xavfga qarshi tezkor, keng ko‘lamli, kompleks va tizimli kurashish va kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun olib borilayotgan islohotlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil), O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi (2003-yil), «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi (2015-yil), «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi (2019-yil), «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi (2022-yil), «Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida»gi (2024-yil) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2021-yil), «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023-yil), «Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2025-yil) farmonlari, «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2018-yil), «O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2023-yil), «Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» (2024-yil), «Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2025-yil) qarorlari, Vazirlar Mahkamasining «Idoralararo elektron hamkorlik tizimi va ma’lumotlarning axborot almashinuvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2022-yil), «Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi (2022-yil) qarorlari, Markaziy bank boshqaruvining «To‘lov tizimi operatorlarining va to‘lov tashkilotlarining faoliyatini nazorat qilish

va kuzatuvni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi (15.05.2023-y., ro‘y.: 3434), «To‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to‘lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish choralarini ko‘rish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi (21.05.2024-y., ro‘y.: 3513) qarorlari, Davlat xavfsizlik xizmati raisining «O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlik va muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta’minlash darajasini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi (22.09.2023-y., ro‘y.: 3458), «O‘zbekiston Respublikasi muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini toifalash va ularning yagona reestrini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida»gi (11.11.2024-y., ro‘y.: 3570), «Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi (14.11.2024-y., ro‘y.: 3573), «Axborot tizimlari va resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan apparat, apparat-dasturiy hamda dasturiy vositalarni sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi (14.11.2024-y., ro‘y.: 3574) buyruqlari, adliya vazirining «Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishning namunaviy tartibini tasdiqlash haqida»gi (15.11.2023-y., ro‘y.: 3478) va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishi»ga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Tadqiqot ishi xorijiy davlatlarda qisman o‘rganilgan. Xususan, Germaniyada Fraungofer instituti, Kyoln kiberjinoyatchilikni tadqiq etish instituti, Germaniyaning axborot, telekommunikatsiya va mediahuquq instituti, Norvegiyaning Oslo universiteti Norvegiya komyuterlar va huquq ilmiy-tadqiqot markazi, Buyuk Britaniyaning axborot texnologiyalari xavfsizligi markazi, Shveyratsiyaning kiberxavfsizlik kompusi, Kanadaning kiberjinoyatchilikni tadqiq etish xalqaro markazi va uning «International Centre for Comparative Criminology», «Darknet and Anonymity Research Center», «Cybersecurity Laboratory» kabi o‘nlab laboratoriyalari, Shveysariyaning kiberxavfsizlik kompusi, Italiyaning jinoyatchilik va innovatsiyalar bo‘yicha transjinoyatlarni birgalikda tadqiq etish markazi, Kanadaning kiberjinoyatchilikni tadqiq etish xalqaro markazi, Germaniya, Avstraliya, Irlandiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, AQSh, Chexiya, Vengriya, Italiya, Latviya, Litva, Niderlandiya, Polsha, Slovakiya, Ispaniya, Gresiya, Turkiya, Belgiya, Portugaliya, Avstriya, Shvesiya, Finlyandiya, O‘zbekistonda kiberxavfsizlik markazlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, BMT o‘zining UNICRI dasturi orqali kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha bevosita tadqiqot o‘tkazishadi.

Garchi yuqoridagi tashkilotlar tomonidan jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarni o‘z faoliyati nuqtai nazaridan qisman o‘rganishayotgan bo‘lsa-da, biroq ular ushbu sohani kompleks shaklda ham huquqiy, ham texnik, ham ilmiy jihatdan baravar o‘rganishmaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq ba’zi masalalar u yoki bu darajada o‘rganilganligini ta’kidlash lozim.

Chunonchi, **milliy olimlardan** A. Joldasov, A. Karaxanyan, A. Norov, A. Nosirov, A. Rasulev, B. Kiselev, B. Matmuratov, B. Ulug‘bekov, B. Turdialiyev D. Topildiyeva, F. Batirov, F. Djurayev, I. Toroxodjayeva, I. Ismailov, K. Zinchenko, L. Ismailova, M. Xaydarova, M. Xolmatov, M. Rustamboyev, N. Kaxxarova, N. Polevoy, N. Salayev, P. Shagilov, R. Kabulov, R. Ro‘ziyev, S.Svetkov, U. Nizamedinxodjayev, U. Rasulev, V. Krilov, V. Xurgin, X. Ochilov, Y. Mastinskiy, Y. Solovev, Sh. Xaydarov, Sh. G‘ulomov, Sh. Shamsidinov va boshqalar;

MDH ga kiruvchi davlatlar olimlaridan A. Borovikova, A. Doxoyan, A. Fedorov, A. Kuznesov, A. Volevodz, A. Zinsova, B. Kondrashov, D. Korotchenkov, D. Kiryuxina, Y. Dozorseva, Y. Yefimova, Y. Osipova, F. Kramer, G. Valiaxmetova, I. Maslova, I. Chekunov, K. Belskiy, L. Vens, L. Popov, L. Sukanov, M. Avakyan, N. Bobrovnikova, N. Zorina, O. Cherkasenko, S. Kochoi, S. Starr, S. Stepashin, T. Tropina, T. Volcheskaya;

boshqa **xorijiy olimlardan** N. Paradis, H.Halperin, K. Kern, V.Wenzel, D. Chamberlain, M. Hatta va boshqalar jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar bo‘yicha qisman tadqiqot olib borishgan[7].

Yuqoridagi olimlar jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarni qisman tadqiq etishgan bo‘lsa-da, biroq ular kompleks shaklda ham huquqiy, ham texnik, ham ilmiy jihatdan baravar uni o‘rganishmagan. O‘zbekistonda shu paytga qadar jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar, ularni aniqlash, ularning oldini olish, ularga qarshi kurashish hamda oqibatlarini bartaraf etishga oid munosabatlar aniq qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solib qo‘yilmagan, olimlar bu mavzuni to‘liq keng qamrovli va kompleks shaklda o‘rganishmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar asosida qonunchilik normalarini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlarini tadqiq etish va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning umumiy tavsifi va tasnifini o‘rganish;

---

[7] Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash va takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyatini aniqlash;

asosiy, qo‘shimcha va fakultativ bevosita obyekti “jamoat xavfsizligi” bo‘lgan kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlilini amalga oshirish;

xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida va xalqaro hujjatlarda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlarini tahlil qilish;

O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli nazoratning roli va ahamiyatini tadqiq etish;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta’minlashda ushbu jinoyatning vujudga kelish sabablarini aniqlash va ularga qo‘llanilgan jazolarni ijro etishni tushuntirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlarini huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmeti jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning nazariy-huquqiy va yuridik tahlili, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim kiberjinoyatlarning xorijiy va xalqaro jinoiy-huquqiy jihatlari, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta’minlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni va rolini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq muammolardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiylik, anketa so‘rovi, empirik materiallar va statistik ma’lumotlar tahlili, kuzatuv, tizimli yondoshuv, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan. Anketa so‘rovi natijalari dissertatsiyaga 8-ilova tariqasida taqdim etilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

telekommunikatsiya tarmoqlaridan yoki Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda ommaviy tartibsizliklarga va fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga omma oldida da’vat qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi jamoat xavfsizligi ta’minlanishi mustahkamlanishiga xizmat qilishi asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda ma’lumotlar bazalarida shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoyalash va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanishiga hissa qo‘shishi asoslangan;

kiberxavfsizlik va muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini toifalash, ularning kiberxavfsizligini ta’minlash darajasini baholash, kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish, axborot tizimlari va resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan apparat, apparat-dasturiy hamda dasturiy vositalarni sertifikatlashtirish tartibi belgilanishi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tizimlashtirishga, kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi ta’minlanishiga xizmat qilishi isbotlangan;

qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyat sodir etish, shu jumladan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish va mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish uchun jinoiy javobgarlikni belgilash kiberxavfsizlikni kuchaytirish, kripto-aktivlar bo‘yicha qonunchilik buzilishiga qarshi qat’iy choralar ko‘rish, axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish va ulardan noqonuniy foydalanishning barvaqt profilaktikasiga xizmat qilishi asoslangan;

giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni, ularni targ‘ib qiluvchi mahsulotni telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tarqatish, reklama qilish, namoyish etish tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun jinoiy javobgarlikni belgilanishi inson hayoti va sog‘lig‘i muhofazasi kuchaytirilishiga xizmat qilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning umumiy tavsifi va tasnifi tushuntirildi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash va takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati ko‘rsatib berildi;

asosiy, qo‘shimcha va fakultativ bevosita obyekti “jamoat xavfsizligi” bo‘lgan kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlili amalga oshirildi;

xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlari ko‘rsatib berildi;

xalqaro hujjatlarda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlari ochib berildi;

O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli nazoratning roli va ahamiyati tushuntirildi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta’minlashda ushbu jinoyatning vujudga kelish sabablarini aniqlash va ularga qo‘llanilgan jazolarni ijro etish tartibi tushuntirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi **125** ta davlat organi va tashkiloti, shuningdek, boshqa tashkilotda ishlovchi **3905 nafar xodim**, shu jumladan, 14 ta mahalliy ijroiya hokimiyati, 28 ta yirik korxona, tashkilot va muassasalar, barcha banklar va boshqa tashkilotlar, **Namangan viloyatidagi** 37 ta davlat organlari va tashkilotlari, **21 ta fuqarolik jamiyati institutlari** o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar, o‘rganishlar, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan berilgan dalolatnomalar tasdiqlangani orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundaki, izlanishlar natijasida bildirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar jinoyat huquqining nazariy bilimlarini boyitadi va yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon yaratadi hamda undagi ilmiy-nazariy g‘oya va xulosalar O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining huquqiy

mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalarni yanada chuqurroq o‘rganishda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati norma ijodkorligi faoliyatida, xususan, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta’lim muassasalarida «Jinoyat huquqi», «Jinoyat protsessi», «Fuqarolik huquqi», «Kibernetika», «Informatika», «Axborot huquqi», «Kiberxavfsizlik», «Kiberxavfsizlik asoslari», «Axborot xavfsizligi asoslari», «Kiberhuquq», «Raqamli huquq» fanlari o‘quv jarayonida ma’ruza va seminarlar o‘tkazish va tadqiqot olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun va ilg‘or xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Jinoyat va jinoyat-protsesual kodekslarini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlari mavzusidagi tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

1. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» 2021-yil 30-martdagi O‘RQ–679-son Qonuni bilan «telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan, Internet jahon axborot tarmog‘idan, shuningdek matnni ko‘paytirishning bosma yoki boshqa usullaridan foydalangan holda ommaviy tartibsizliklarga va fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga omma oldida da’vat qilish» uchun Jinoyat kodeksining 244-moddasining ikkinchi qismi «b»-bandi bilan jinoiy javobgarlik belgilandi. (O‘zkomnazoratning 05.12.2024-yildagi 01/07-1-son dalolatnomasi);

2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ–726-son Qonuni bilan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma’lumotlar bazalarining davlat reestrida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga doir ma’lumotlar bazalarida shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141^2-moddasida jinoiy javobgarlik belgilab qo‘yildi (O‘zkomnazoratning 05.12.2024-yildagi 01/07-1-son dalolatnomasi);

3. O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida» 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ–764-son Qonuni qabul qilindi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi PQ–75-son qarori ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisining

«O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlik va muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta’minlash darajasini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2023-yil 4-sentabrdagi 91-son (22.09.2023-y., ro‘y.: 3458), «O‘zbekiston Respublikasi muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini toifalash va ularning yagona reestrini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida» 2024-yil 24-oktabrdagi 118-son (11.11.2024-y., ro‘y.: 3570), «Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2024-yil 15 oktyabrdagi 113-son (14.11.2024-y., ro‘y.: 3573), «Axborot tizimlari va resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan apparat, apparat-dasturiy hamda dasturiy vositalarni sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2024-yil 15-oktabrdagi 114-son (14.11.2024-y., ro‘y.: 3574) buyruqlari qabul qilindi, shuninhdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2023-yil 31-maydagi PQ–167-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tartibi va O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida kiberxavfsizlikning umumiy talablari tasdiqlab qo‘yildi. (Raqamlashtirish vazirligining 14.05.2024-yildagi 20-8/3142-son va O‘zkomnazoratning 05.12.2024-yildagi 01/07-1-son dalolatnomalari);

4. O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ–829-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141^3-moddasida shaxs tanasining va (yoki) jinsiy a’zolarining yalang‘och holdagi foto- va (yoki) videotasvirini o‘z ichiga olgan axborotni uning roziligisiz tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish yoxud bunday axborotni tarqatish bilan qo‘rqitish, O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida» 2024-yil 19-yanvardagi O‘RQ–899-son Qonuni bilan Jinoyat kodeksining 165-moddasida tovlamachilik jabrlanuvchining axborot resursini yo‘q qilish, o‘zgartirish, egallab olish yoki to‘sib qo‘yish yoki jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish, uni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bilan qo‘rqitib o‘zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o‘zining mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yish, 278^8-moddasida kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish, 278^9-moddasida mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish uchun jinoiy javobgarlik belgilanib, Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo‘limiga «kripto-aktiv» va «mayning» tushunchalari kiritildi hamda O‘zbekiston Respublikasining

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» 2022-yil 19-oktabrdagi O‘RQ–794-son Qonuni bilan Jinoyat kodeksining 168-moddasining uchinchi qismi g-bandida axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik va 169-modda uchinchi qismining «b» bandida qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib o‘g‘rilik jinoyatini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilab qo‘yilgan. (O‘zkomnazoratning 05.12.2024-yildagi 01/07-1-son dalolatnomasi);

5. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining yoki psixotrop moddalarning, shuningdek kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida» 2024-yil 5-oktabrdagi O‘RQ–971-son Qonuni bilan Jinoyat kodeksining 251^1-moddasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, 273-moddaning uchinchi qismi «d»-bandida telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanib giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, o‘tkazish, Jinoyat kodeksining 274-moddasida giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. (O‘zkomnazoratning 05.12.2024-yildagi 01/07-1-son dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 31 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta monografiya, 2 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida lug‘at OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta maqola (2 tasi xorijiy nashrda), xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida 16 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 10 ta paragrafni qamrab olgan 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 594 betni, shu jumladan asosiy qismi 233 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda obyekt va predmeti asoslangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning nazariy-huquqiy tahlili**» birinchi bobi ikkita paragrafdan iborat bo‘lib, unda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning umumiy tavsifi va tasnifi hamda ushbu turdagi kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash va takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati ochib berilgan.

Ushbu bobda muallif jinoyat qonunchiligi va boshqa qonunchilik hujjatlarida «jamoat xavfsizligi» va «jamiyat xavfsizligi» tushunchalarining o‘zaro farq qilishiga ahamiyat berilmaganligini va ular aslida o‘zaro farq qilishini hamda bundan kelib chiqib, qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarurligini, qonunchilik hujjatlarida mavjud normalarning to‘g‘ri emasligi ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini, xalqaro hamkorlikda ham bir qator muammolarni vujudga keltirishni tushuntirib o‘tadi.

Bundan tashqari, muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlar, shu jumladan, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar va jamoat xavfsizligiga qarshi kiberjinoyatlar o‘zaro farq qilishini, xatto jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarga qaraganda ushbu jinoyat zararliroq jinoyat hisoblanadi degan fikrni o‘rtaga tashlab, ularni nazariy-huquqiy jihatdan asoslab beradi.

Shuningdek, muallif Jinoyat kodeksining oltinchi bo‘limidagi «*Jamoat xavfsizligi va tartibiga qarshi jinoyatlar*» deya Jinoyat kodeksining XVII bobidagi «*Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar*» va XX bobidagi «*Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar*» alohida boblarda belgilangan holda, ushbu bo‘limda qo‘shimcha ravishda Jinoyat kodeksining XVIII bobidagi «*Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar*», XIX bobidagi «*Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar*», XX[1] bobidagi «*Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar*» ham ushbu bo‘limda nazarda tutilganligi, jinoyat obyekti nuqtai nazaridan ular o‘zaro farq qilishini bayon qilib o‘tadi.

Muallif asosiy muammo sifatida *«kiberjinoyat», «kibermuhit», «jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi axborot», «jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyat», «jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyat», «kiberxavfsizlik», «jamoat xavfsizligi», «jamiyat xavfsizligi»* kabi tushunchalar qonunda aniq nazarda tutilmaganligini, *«kiberxavfsizlik», «kiberjinoyatchilik», «kiberxavfsizlik obyekti», «kiberxavfsizlik subyekti»* tushunchalari qonunda aniq va to‘g‘ri belgilanmaganligi oqibatida muammolar vujudga kelayotganligini ta’kidaylaydi.

Xususan, muallif «*kiberjinoyat*» tushunchasi Jinoyat kodeksi va maxsus qonun – O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonunida aniq nazarda tutilmaganligi uchun axborot texnologiyalaridan foydalanib, axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar bilan kiberjinoyatlar o‘zaro farq qilsa-da, amaliyotda bunga e’tibor berilmayotganligini, bunga oid nazariy-huquqiy yondashuvlar noto‘g‘ri shakllanayotganligini, «*jamoat xavfsizligi*» va «*jamiyat xavfsizligi*» tushunchasi amalda bitta tushuncha sifatida qonunchilikda inobatga olinib ketilayotganligini, «*kiberxavfsizlik obyekti*» faqatgina axborot tizimi yoki muhim axborot infratuzilmasi bo‘lgan axborotlashtirish tizimidan iborat emasligini, aslida kiberjinoyatlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tizim, vosita, qurilma, tarmoq, uskuna, dastur, aloqa, dasturiy ta’minot, axborot bilan ham sodir etilishi mumkinligini va sodir etilayotganligini, xatto ularning o‘ziga nisbatan ham kiberjinoyat содир этилишини amaliy va nazariy tomondan tushuntirib beradi.

Bundan tashqari muallif, «*kiberjinoyatchilik*» tushunchasini berishda uning axborotni ishlov berishga oid boshqa usullar bilan ham sodir etilishini, axborot tizimigagina bog‘lab, bu tushunchaga ta’rif berish, «*kiberxavfsizlik*» tushunchasi bilan o‘zaro bog‘lamaslik xato hisoblanishini asoslab beradi.

«***Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning umumiy tavsifi va tasnifi***» birinchi paragrafida muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning nazariy-huquqiy mazmun-mohiyatini ochib bergan.

Muallif ushbu paragrafda *«jamoat», «jamiyat», «jinoyat», «kiberjinoyat», «jamoat xavfsizligi», «jamiyat xavfsizligi», «jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlar», «jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlar», «jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar», «jamiyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar», «jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar», «jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar», «jamoat xavfsizligiga qarshi kiberjinoyatlar», «jamiyat xavfsizligiga qarshi kiberjinoyatlar», «kibermuhit», «kibermakon», «kibertahdid», «kiberxavfsizlik hodisasi», «kiberxavfsizlik obyekti», «kiberxavfsizlik subyekti»* kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berib, ularning o‘zaro farq qilishini nazariy-huquqiy jihatdan asoslab bergan.

Shunga ko‘ra, Jinoyat kodeksining oltinchi bo‘limi va undagi boblarning jamoat xavfsizligiga emas, balki jamiyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, shu jumladan, kiberjinoyat ekanligini, jamoat xavfsizligi jamiyat xavfsizligidan o‘zaro farq qilishini, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasida jamoat xavfsizligiga oid munosabatlar vujudga kelishini muallif tushuntirgan holda, nazariy-huquqiy jihatdan ushbu bo‘lim va undagi boblarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini asoslagan.

Muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning klassifikatsiyasini, ularni vertikaliga ko‘ra, umumiy, turdosh, maxsus va bevosita obyekti jamoat xavfsizligi bo‘lgan kiberjinoyatlarga bo‘linishini, bevosita obyekti jamoat xavfsizligi bo‘lgan kiberjinoyatlar o‘z navbatida asosiy, qo‘shimcha va fakultativ bevosita obyekti jamoat xavfsizligi bo‘lgan kiberjinoyatlarga bo‘linishini, ularga amaldagi Jinoyat kodeksining qaysi moddalari taalluqli ekanligini, ushbu kiberjinoyatlarning zaruriy belgilarini sanab, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya texnologiyalaridan iboratligini ta’kidlab, qolgan texnologiyalar ularning tarkibiy qismi sanalishini hamda kiberjinoyatlar ulardan foydalangangan holda yoki ularga nisbatan sodir etilishini ilmiy va amaliy jihatdan tushuntirgan.

*«**Jinoyat qonunchiligida jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni belgilashning ijtimoiy zaruriyati**»* ikkinchi paragrafida muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni belgilashning 23 ta ijtimoiy zaruriyatini asoslab bergan.

Xususan, kiberjinoyatlarning soni 2020-2025-yillar davomida deyarli **80 barobarga** ko‘payganligi, xatto ushbu jinoyatlar bo‘yicha alohida statistika yuritilayotganligi, sodir qilinayotgan kiberxavfizlik hodisalari uchun amaldagi Jinoyat kodeksimizda yetarlicha jinoiy javobgarlik belgilab qo‘yilmaganligi oqibatida qariyb **90 foiz** kiberjinoyatlar latent shaklida sodir etilib, **11 mingdan ortiq** shaxsga doir ma’lumotlar bazasi, **1500 ga yaqin** axborot tizimlari, **36 mln.ga yaqin** telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchilar va ularga aloqador bo‘lgan shaxslarning qonunchilikdagi huquqlari, ma’lumotlari, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid vujudga kelayotganligi, amaldagi qonunchilik hujjatlarida mulkdorlar, foydalanuvchilar va kiberxavfsizlik subyektlarining qonunchilik hujjatlari bo‘yicha olgan majburiyatlarining bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq javobgarlikni keltirib chiqarishi belgilangan holda, amaldagi Jinoyat kodeksida bu bo‘yicha yetarlicha javobgarlik belgilanmaganligi, buning oqibatida jamoat xavfsizligiga tahdidlar kuchayib borayotganligi, buning uchun jinoiy-huquqiy tomondan Jinoyat kodeksida jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun yetarlicha jinoiy javobgarlikni belgilash va mavjud qonunchilikni qayta ko‘rib chiqib, uni takomillashtirish zarurligi nazarda tutilgan.

Dissertatsiyaning **«Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning yuridik tavsifi»** ikkinchi bobida muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarni obyektiga qarab, asosiy, qo‘shimcha va fakultativ bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlarga ajratilganligini inobatga olib, ularning jinoiy-huquqiy tahlilini ko‘rsatib o‘tadi.

Muallif «jamoat xavfsizligi»ga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishiga qarab, asosiy, qo‘shimcha va fakultativ bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlar o‘zaro farq qilishini, ushbu turdagi jinoyatlarning subyektiv tomondan doimo qasddan, kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, telekommunikatsiya infratuzilmalari orqali sodir etilishi va boshqa jinoyatlardan, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida va undan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlardan o‘zaro farq qilishini, ushbu turdagi jinoyatlar kiberjinoyatning bir turkumi yoki guruhiga kiruvchi kiberjinoyat ekanligini va o‘zining obyekti bilan boshqa kiberjinoyatlardan o‘zaro farq qilishini tushuntirib o‘tgan.

Shuningdek, muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar kiberjinoyatlarning bir turi sifatida o‘zining keng qamrovligi va ijtimoiy xavfi bo‘yicha boshqa kiberjinoyatlar o‘zaro farq qilishini, bir vaqtning o‘zida yoki

alohida-alohida tartibda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga xavf tug‘dirishini ta’kidlab o‘tadi.

Tadqiqot davomida muallif sun’iy intellektning tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi sifatida jinoyat ishtirokchisi bo‘lishi mumkinligini, biroq bu bo‘yicha uning jinoiy javobgarligi Jinoyat kodeksimizda nazarda tutilmaganligini qayd etadi. Sun’iy intellekt jinoyat ishida tashkilotchi sifatida barcha axborot tizimlari, sun’iy intellektlar o‘zaro integratsiya qilinishi orqali kompleks axborot tizimidan iborat bo‘lgan sun’iy intellekt yaratilgan vaqtida u tashkilotchi sifatida tegishli axborot tizimlari yoki sun’iy intellekt bo‘lgan boshqa tizimlarga noqonuniy kirib yoki ulanib olgan holda, shaxsga nisbatan qasddan turli xil jinoyatlarni sodir etishi, xatto jamiyatda tartibsizliklarni vujudga keltirishi, aholini manipulyatsiya qilishi va boshqa noqonuniy harakatlari oqibatida jamoat xavfsizligiga tahdid solishi mumkinligini ta’kidlaydi. Sun’iy intellekt yordamchi sifatida chat-bot yoki boshqacha ko‘rinishda kiberjinoyatchiga maslahatlar berishi, xatto ko‘rsatmalari bilan, vositalar berishni tashkil qilish yoki to‘siqlarni yo‘qotish bilan ko‘maklashish, shuningdek kiberjinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek bunday narsalarni olish va o‘tkazish to‘g‘risida oldindan va’da bergan holda, jinoyat ishtirokchisi bo‘lishi mumkinligini bayon qiladi. Sun’iy intellekt manipulyatsiya qilish yoki tovlamachilik qilish yo‘li bilan boshqa jinoyat yoki kiberjinoyat tayyorgarlik ko‘rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan holda, jinoyat ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning keng rivoji, uning qulayliklari bir tomondan insoniyatga foyda tegsa, ikkinchi tomondan unga sun’iy intellektning kirib kelishi turli xil shaxslarning har xil jinoyatlar, shu jumladan, kiberjinoyat sodir etilishiga qiziqtirishda sun’iy intellektga vosita rolini bajarmoqda. Sun’iy intellekt qasddan manipulyatsiya, tovlamachilik va boshqa yo‘llar orqali bir vaqtning o‘zida jabrlanuvchi bo‘lgan shaxslarga tegishli jinoyat yoki kiberjinoyat sodir etilishiga qiziqtirishi bilan dalolatchi sifatida jinoyat ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Shu sababli sun’iy intellekt orqali jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning keng tarqalishining oldini olish uchun axborot tizimlarini o‘zboshimchalik bilan strategik o‘ylamasdan o‘zaro integratsiya qilish, ularning raqamli izlarini loglash, ularni saqlash, hisobini avtomatik yuritishning texnik imkoniyatini sun’iy intellektga hech qachon to‘liq bermaslik, uning raqamli nazoratini amalga oshirish zarurligini muallif ta’kidlab o‘tadi.

«***Asosiy bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlili***» paragrafida muallif asosiy bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlarning yuridik tahlilini bayon qilib, jinoiy-huquqiy tahlilini dissertatsiya ilovalarida ko‘rsatgan.

Muallif ushbu paragrafda jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan, ya’ni bevosita jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlilini amalga oshirgan.

«***Qo‘shimcha bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlili***» ikkinchi paragrafida muallif qo‘shimcha bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlarning

yuridik tahlilini bayon qilib, jinoiy-huquqiy tahlilini dissertatsiya ilovalarida ko‘rsatgan.

Muallif ushbu paragrafda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi axborot texnologiyalari yoki raqamli texnologiyalar sohasiga kiruvchi kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlilini amalga oshirgan.

«***Fakultativ bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlili***» uchinchi paragrafida muallif fakultativ bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlarning yuridik tahlilini bayon qilib, jinoiy-huquqiy tahlilini dissertatsiya ilovalarida ko‘rsatgan. Muallif ushbu paragrafda asosiy va qo‘shimcha obyekti bilan bir qatorda fakultativ ta’siri bo‘lgan boshqa kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlilini amalga oshirgan.

Dissertatsiyaning **«Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim kiberjinoyatlarning xorijiy va xalqaro jinoiy-huquqiy jihatlari»** uchinchi bobida muallif 150 dan ortiq xorijiy davlatlarda va 50 dan ortiq xalqaro hujjatlarda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlarini ko‘rsatib o‘tgan.

Muallif ushbu bobda kiberjinoyatlar deganda faqatgina texnik tomondan axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar tushunmaslik kerakligini ilmiy, amaliy, huquqiy, texnik jihatdan xorijiy tajriba asosida tushuntirib bergan. Shuningdek, muallif axborot tizimiga noqonuniy kirish, tarmoqqa noqonuniy ulanib olish, axborot tizimiga noqonuniy yoki qonuniy kirgan holda, noqonuniy harakatlarni amalga oshirish, tarmoqqa noqonuniy ulanib yoki tarmoqdan qonuniy foydalanayotgan vaqtida noqonuniy harakatlar qilish, kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib, qonunchilik bilan tarqatilishi taqiqlangan yoki cheklangan yohud maxfiy axborot toifasiga kiritilgan axborotni noqonuniy tarqatish harakatlari ham kiberjinoyat bo‘lishini, tarmoqdan va axborot tizimidan ruxsat bilan foydalangan taqdirda ham noqonuniy harakatlar qilish kiberhuquqbuzarlikni keltirib chiqarishi mumkinligini, axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki foydalanishdan tashqari axborotni uzatish, tarqatish, egasizlantirish kabi harakatlar bilan ham kiberjinoyat sodir etilishi mumkinligi va buning uchun ham xorijiy davlatlarda va xalqaro qonunchilikda yetarlicha javobgarlik belgilab qo‘yilganligi ko‘rsatilgan.

*«**Xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlari**»* paragrafida muallif xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligini tadqiq etgan. Xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Albaniya, Gresiya, AQSh, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Niderlendiya, Singapur, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozorboyjon, Armaniston, Gruziya, Sloveniya, Latviya, Finlandiya, Norvegiya, BAA, Saudiya Arabistoni, Kanada va boshqa xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun alohida jinoiy javobgarlik borligini, bu turdagi jinoyatlar ularning jinoyat qonunchiligida alohida bo‘lim, bob yoki moddalarda aks ettirilganligini tushuntirib o‘tgan.

«***Xalqaro hujjatlarda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim kiberjinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlari***» ikkinchi paragrafida muallif xalqaro hujjatlarda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun dunyo davlatlarida alohida jinoiy javobgarlik bo‘lishi zarurligi va uni amalga oshirish mexanizmi qanday bo‘lishi darkorligi ko‘rsatilgan. Muallif 12 ta xalqaro hujjatlardan 4 tasiga O‘zbekiston qo‘shilganligini, kiberjinoyatlar xalqaro transchegaraviy jinoyat bo‘lganligi sababli dunyo davlatlari bilan O‘zbekiston o‘zaro hamkorlikdan manfaat ko‘rishi mumkinligini tahlil qilib, qolgan 8 ta xalqaro hujjatlarga qo‘shimcha shartlar bilan O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilishi zaruriyatini tushuntirib bergan.

Dissertatsiyaning **«Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta’minlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni va roli»** to‘rtinchi bobida muallif O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli nazoratning roli va ahamiyati hamda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta’minlashda ushbu jinoyatning vujudga kelish sabablarini aniqlash va ularga qo‘llanilgan jazolarni ijro etish tartibi haqida so‘z yuritgan. Ushbu bobda muallif nafaqat kiberjinoyatlar, balki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar bo‘yicha vakolatli idoralar tomonidan amalga oshirayotgan islohotlar yetarlicha o‘zini oqlamayotganligini, vakolatli idoralar raqamli texnologiyalardan unumli foydalanmayotganligini, huquqiy targ‘ibot tizimli va samarali yo‘lga qo‘yilmaganligini, «yashil», «sariq» va «qizil» toifalarga ajratilgan mahallalardagi kriminogen vaziyat bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan mavjud tartib-taomillar kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda yetarlicha naf keltirmasligini, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalliy davlat vakillik organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, sud, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini to‘liq qayta ko‘rib chiqish va bugungi kun talablariga moslashtirish, tezkor-qidiruv organning kiberxodimi, kiberprokuror, kibersudya va boshqa kiberxavfsizlikni ta’minlashga mas’ul shaxslarning aniq vazifalar taqsimotini belgilash, jinoyat qonunchiligimizni qayta ko‘rib chiqish, anglosakson qonunchiligi qoidalaridan yetarlicha foydalanish zarurligini ko‘rsatib bergan.

*«**O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli nazoratning roli va ahamiyati**»* paragrafida muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar raqamlashtirish orqali yaratilgan infratuzilmalar yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan axborotga nisbatan amalga oshirilayotganligi xususida to‘xtalib o‘tadi. Mazkur turdagi jinoyatlar uchun amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zini yetarlicha oqlamayotganligini, an’anaviy usullardan voz kechib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish zaruriyatini, raqamli nazorat deya atalayotgan «Ping» ma’lumotga asoslangan, «Raqamli nazorat» kompleks axborot tizimi orqali jamoat xavfsizligini to‘liq ta’minlash imkoniyati mavjud emasligini, balki u orqali jamoat xavfsizligiga tahdidlar vujudga kelishi mumkinligini tushuntirib o‘tadi.

Muallif vujudga kelgan og‘ir vaziyatni faqatgina «**Jamoat xavfsizligining raqamli monitoringi**» kompleks axborot tizimi va uning tarkibiy qismi sanalgan «**Log menejment**», «**Raqamli jamoatchilik**», «**CYBER**», «**Bolalar xavfsizligi**»,

«**Kelajak**», «**Aqlli ta’lim**», «**CYBERSTAT**», «**CYBERPREVEN**», «**CYBERPROB**» kompleks axborot tizimlarini to‘liq yo‘lga qo‘yish, fuqarolarning shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berishning alohida shartlariga rioya qilishga mas’ul bo‘lgan messenjer va ijtimoiy tarmoq mulkdorlari va operatorlarining faoliyati hamda foydalanuvchilarning barcha axborotini to‘liq nazorat qilish imkonsizligi sababli foydalanuvchilarning eng muhim axborotlarining raqamli ma’lumotlari xavfsizligini ta’minlash orqali qisman, biroq hozirgiga qaraganda samaraliroq natijalarga erishish mumkinligini tushuntirib bergan. Ushbu axborot tizimlari ichida «**Jamoat xavfsizligining raqamli monitoringi**» kompleks axborot tizimiga sun’iy intellektni jory qilish mumkin emas, qolgan axborot tizimlari esa, sun’iy intellekt texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish mumkin, bundan yopiq axborot bilan ishlovchi tizimlarning tarkibiy qismi mustasno. Yuqorida ta’kidlangan axborot tizimlarining har biri o‘zaro integratsiya qilinishi mumkin hamda raqamli izlari loglash yo‘li bilan saqlanadi va avtomatik hisobi yuritib boriladi. Bundan tashqari, boshqa zarur axborot tizimlari ularga integratsiya qilinishi darkor. Misol uchun, “Qalqon” axborot tizimi orqali “xavfsiz shahar” loyihasi va boshqa loyihalar hamda tashabbuslar bilan yurtimizda o‘rnatilgan videomakamera yozuvi orqali qidiruvdagi shaxslarni sun’iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan tizimlar orqali aniqlash mumkin. Biroq ushbu tizimda sun’iy intellektning mavjud emasligi, “aqlli linza”, “aqlli ko‘zoynak” kabi texnologiyalarning qo‘llanilmayotganligi, qolaversa, mahalla inspektoriga kelib tushayotgan xabarda aynan qidiruvdagi shaxs uning hududiga kelganligi alohida avtomatik xabar berishi yo‘lga qo‘yilmaganligi, xabarlar avtomatik tahlil qilinmayotganligi va xabardor etish tizimida kamchiliklar borligi sababli mazkur tizimni takomillashtirib, axborotni «**Raqamli jamoatchilik**» axborot tizimiga ham yo‘naltirib berish yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

«***Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta’minlashda ushbu jinoyatning vujudga kelish sabablarini aniqlash va ularga qo‘llanilgan jazolarni ijro etish***» ikkinchi paragrafida muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi qilmishlarning oldini olish, ularni aniqlash, kiberjinoyatchini fosh etish, uni ushlash, kiberjinoyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda raqamli texnologiyalarning o‘rnini hamda jazoni ijro etish tartibini tushuntirib beradi. Ushbu paragrafda muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarni ijro etishda ushbu jinoyatlarning vujudga kelish sabablariga e’tibor qaratish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Muallif kiberjinoyat uchun qo‘llanilgan jazoning ijrosini ta’minlashda taqdimnoma, xususiy ajrim yuborishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya har bir kiberjinoyatning vujudga kelish sababini albatta o‘rganishi darkorligini ta’kidlab, amaliyotda Namangan viloyati misolida o‘rganilganida ushbu subyektlar tomonidan yuborilgan taqdimnoma va xususiy ajrimlar vakolatli organlarning bayonnomalari va foto-hisobotlari bilan ijrosini noto‘g‘ri ta’minlanayotganligi, vujudga kelgan kiberjinoyatning oqibatlari amalda bartaraf etilishi bo‘yicha biron bir ijobiy ishlar amalga oshirilmayotganligini ta’kidlab o‘tadi. Muallif agarda jazo to‘liq ijro etilishini va shu kabi qilmishlar boshqa takrorlanmasligini xohlasalar albatta taqdimnoma va xususiy ajrimda kiberjinoyatning vujudga kelish sabablarini unda qayd etib,

uning oqibatlarini vakolatli organlar tomoridan bartaraf etilishi tartibini tushuntirib o‘tadi. Bundan tashqari, muallif jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar jazo muqarrarligini ta’minlash va kiberjinoyatlarning kamayishiga erishish uchun kiberjinoyatchilarga qo‘llanilayotgan jazoni to‘liq qayta ko‘rib chiqish zarurligini, zararni undirishga ko‘proq e’tibor qaratib, imtiyozli normalarni ko‘proq belgilash orqali bu turdagi jinoyatlar bilan kurashish mumkinligini bayon qiladi.

XULOSA

Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarni huquqiy tartibga solishni kompleks tadqiq etish davomida milliy, xalqaro, xorijiy tajriba tahlil qilinib, olimlarning doktrinal qarashlari ko‘rib chiqilib, quyidagi konseptual xulosalar qilindi va tegishli qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. «*Jamoat*» va «*jamiyat*», shuningdek, «*jamoat xavfsizligi*» va «*jamiyat xavfsizligi*» tushunchalari o‘zaro farq qilganligi va amaldagi qonunchiligimizda ushbu tushunchalarning o‘zaro bir mazmunda noto‘g‘ri qo‘llanilayotganligi sababli ularni dissertatsiya 6- va 20-ilovasiga muvofiq tahrirda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Xususan, «**jamoat xavfsizligi** – tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, aniq bir hududda, maqsad va o‘y fikrlari o‘zaro o‘xshash yoki bir xil bo‘lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki davlatdan iborat subyektlar ixtiyoriylik va tenglik tamoyillari asosida aniq bir maqsad sari birlashishi natijasida vaqtinchalik tuzilgan ijtimoiy tuzilmaning ichki va tashqi xavfdan himoyalanganlik holati» bo‘lsa, «**jamiyat xavfsizligi** – hududiy joylashuvidan qat’i nazar, fikrlar xilma-xilligi asosida tarixan shakllangan, aniq va bir xil maqsadga ega bo‘lmagan, doimiy asosda faoliyat yurituvchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizimlarni va (yoki) katta miqyosdagi odamlar guruhi, ya’ni millat, xalq, davlatni qamrab oluvchi, davlat tomonidan tan olingan, muayyan toifa, sinf, yo‘nalish, soha, tuzum, hokimiyat yoki ta’limot atrofida birlashgan insonlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilmaning ichki va tashqi xavfdan himoyalanganlik holati» sanaladi; Bunda, jamoat xavfsizligiga bo‘layotgan tahdid individual, jamoaviy va milliy (institutsional) xavf darajasi bilan milliy xavfsizlik bilan jamoat xavfsizligi o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va jamoat xavfsizligi ishtirokchilari jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat sanaladi va ular aralash yoki bir turdagi subyektlardan iborat shaklda tuzilgan bo‘lishi mumkin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunda «kiberxavfsizlik obyekti» sifatida axborot tizimlari hamda muhim axborot infratuzilmalari mavjud bo‘lgan axborotlashtirish tizimlari nazarda tutilgan. Biroq, «kiberxavfsizlik obyekti»ga axborot, aloqa, axborot resursi, tarmoq, tizim, vosita, qurilma, uskuna, dastur, dasturiy ta’minot ham kirishi mumkinligi inobatga olinmagan hamda «kiberxavfsizlik» tushunchasining ta’rifi juda keng bayon etilgan, uning ta’rifini berishda «kiberjinoyatchilik» va «kiberxavfsizlik obyekti» tushunchalari ushbu tushuncha bilan bevosita bog‘liqligi, «kiberjinoyatchilik»

tushunchasiga ta’rif berishda qonun chiqaruvchi mazkur Qonunda nazarda tutilgan boshqa usullarda ham kiberjinoyat sodir etilishi mumkinligi e’tiborga olinmagan. Oqibatda O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilik va kiberxavfssizlik sohalariga oid qonunchilik alohida rivojlanmoqda, zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qonunchilik yetarlicha to‘g‘ri tizimlashtirilmaganligi natijasida amaliyot noto‘g‘ri yo‘nalishga qarab shakllanmoqda va ushbu holatga chek qo‘yish juda zarur sanaladi. Shu sababli dissertatsiyada nazarda tutilgan asoslardan kelib chiqib, «kiberjinoyat», «kiberjinoyatchilik», «kibermuhit», «kibermakon», «kiberxavfsizlik», «kiberxavfsizlik obyekti»ga quyidagicha ta’riflar ishlab chiqildi:

«**kiberjinoyat** – Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib sodir etiladigan va buning uchun Jinoyat kodeksida jazo qo‘llash tahdidi bo‘lgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik);

kiberjinoyatchilik – kiberjinoyatlar yig‘indisi bo‘lib, u kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish, uzatish, tarqatish, ishlov berish, egasizlantirish, foydalanish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan jinoyatlar majmui;

kibermuhit – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborot-kommunikatsiya tizimi, shu jumladan, axborot tizimi hamda aloqa, axborotlashtirish, telekommunikatsiya, sun’iy intellekt, bio-, nono-, kibertexnologiyalar infratuzilmasi va boshqa texnik vositalarda yoki ular orasida yaratilgan kibermakon, shart-sharoitlar, hodisalar va holatlarni o‘z ichiga oluvchi hamda virtual olam haqida axborot beruvchi muhit;

kibermakon – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborot-kommunikatsiya tizimi, shu jumladan, axborot tizimi hamda aloqa, axborotlashtirish, telekommunikatsiya, sun’iy intellekt, bio-, nono-, kibertexnologiyalar infratuzilmasi va boshqa texnik vositalarda yoki ular orasida yaratilgan kibermuhitdagi aniq o‘rin, joy, nuqta va hudud;

kiberxavfsizlik — kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib kiberxavfsizlik obyektlari hamda ularga bog‘langan shaxs, jamiyat, davlat va jamoat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlar majmui orqali ta’minlanadigan xavfsizlik holati;

kiberxavfsizlik obyekti – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, axborot, raqamli, sun’iy intellekt, telekommunikatsiya, bio-, nono-, kibertexnologiyalar, shu bilan birga, ularga bog‘liq bo‘lgan vositalar, qurilmalar, uskunalar va boshqa texnik vositalar, axborot-kommunikatsiya tizimi, shu jumladan, axborot tizimi yoki ulardagi axborotning kibertahdid va kiberxavfsizlik hodisasidan himoya qilinishi hamda kiberxavfsizligi ta’minlanuvchi ulardagi mavjud resurslar, infratuzilmalar, tizimlar, muhim axborot infratuzilmasi obyektlari bo‘lgan kiberhimoyaga olingan yoki olinmaganligidan qat’iy nazar kiberhimoya qilinishi zarur bo‘lgan obyekt;»;

3. Amaldagi qonunchilikda «*jamoat*» va «*jamiyat*», «*jamoat xavfsizligi*» va «*jamiyat xavfsizligi*», «*jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyat*» va «*jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyat*», «*jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyat*» va «*jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyat*», «*jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi axborot*» tushunchalarining ta'riflari nazarda tutilmaganligi hamda jamiyat va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi alohida sohaviy maxsus qonunlar mavjud emasligi va bu boradagi munosabatlarni tartibga solib qo‘yish jinoyat qonunchiligimizdagi qonuniylik prinsipining to‘liq amalda namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining «Jamiyat xavfsizligi to‘g‘risida»gi va «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilinib, tegishincha ushbu tushunchalarning ta'riflari ushbu qonunlarda nazarda tutilib, ularga kiruvchi jinoyatlar guruhi belgilab qo‘yilishi darkor. Bunda, fikrimizcha,

«jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi axborot – tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, aniq bir hududda, maqsad va o‘y fikrlari o‘zaro o‘xshash yoki bir xil bo‘lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki davlatdan iborat subyektlar ixtiyoriylik va tenglik tamoyillari asosida aniq bir maqsad sari birlashishi natijasida vaqtinchalik tuzilgan ijtimoiy tuzilmaning ichki va tashqi xavfdan himoyalanganlik holatiga kibertahdid soluvchi yoki kiberxavfsizlik hodisasi vujudga keltiruvchi Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib sodir etiladigan va buning uchun Jinoyat kodeksida jazo qo‘llash tahdidi bo‘lgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)larni keltirib chiqaruvchi destruktiv axborotning bir turi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlar – tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, aniq bir hududda, maqsad va o‘y fikrlari o‘zaro o‘xshash yoki bir xil bo‘lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki davlatdan iborat subyektlar ixtiyoriylik va tenglik tamoyillari asosida aniq bir maqsad sari birlashishi natijasida vaqtinchalik tuzilgan ijtimoiy tuzilmaning ichki va tashqi xavfdan himoyalanganlik holatiga tahdid soluvchi Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan va jazo qo‘llash tahdidi bo‘lgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)lar;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar – tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, aniq bir hududda, maqsad va o‘y fikrlari o‘zaro o‘xshash yoki bir xil bo‘lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki davlatdan iborat subyektlar ixtiyoriylik va tenglik tamoyillari asosida aniq bir maqsad sari birlashishi natijasida vaqtinchalik tuzilgan ijtimoiy tuzilmaning ichki va tashqi xavfdan himoyalanganlik holatiga kibertahdid soluvchi yoki kiberxavfsizlik hodisasi vujudga keltiruvchi Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib sodir etiladigan va buning uchun Jinoyat kodeksida jazo qo‘llash tahdidi bo‘lgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)lar», – deb bayon etilishi maqsadga muvofiq;

4. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar, shu jumladan boshqa kiberjinoyatlar dissertatsiya 2-ilovasida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarga

ega hamda ularning obyekti, sodir etish usuli yoki vositasi, subyekti, subyektiv tomoniga qarab tasniflash mumkin va dissertatsiyada biz ularni obyektiga va bevosita obyektiga qarab tasnifladik. Xususan, ushbu turdagi kiberjinoyatlarni bevosita obyektiga ko‘ra, asosiy, qo‘shimcha va fakultativ obyekti «*jamoat xavfsizligi*» bo‘lgan kiberjinoyatlarga bo‘ldik hamda jinoyat qonunchiligimizdagi qonuniylik prinsipi va kiberjinoyatlarning hozirgi holatidan kelib chiqib, ularning jinoiy-huquqiy tahlilini dissertatsiya asosiy qismi va uning 7-, 10-, 12- va 14-ilovalarida to‘liqroq ko‘rsatdik;

5. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning zaruriy belgilarini asosiy va maxsus belgilarga ajratib, qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabat, ijtimoiy xavfli qilmish, javobgarlik yoshi, aqli rasolik, **ayb asosiy zaruriy belgi**, kibermuhit, shu jumladan, kibermakon, axborot, aloqa, shu jumladan, radiochastota, telekommunikatsiya, pochta aloqasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini **maxsus zaruriy belgilarga** kiradi, deb guruhladik, tergov va sud amaliyotini o‘rganib jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning qurollari va vositalariga dissertatsiyaning 22-ilovasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyasi infratuzilmalari kirishi aniqlandi va ularning ro‘yxati tuzib chiqildi hamda ***axborot-kommunikatsiya texnologiyalari*** *– axborotni yaratish, uzatish, ishlash va boshqarish bilan bog‘liq texnologiyalar”* bo‘lib, u axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya texnologiyalaridan iborat ekanligi, raqamli, bulutli, bio, nono, kiber, sun’iy intellekt, blokcheyn va axborot yoki (va) aloqa mavjud bo‘lgan boshqa texnologiyalar ushbu texnologiyalarning tarkibiy qismi sanalishi tushuntirildi;

6. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar obyekti murakkab obyekt bo‘lib, jamoat xavfsizligiga bo‘layotgan kibertahdid va xavf-xatarlarga qarab, o‘zgarib boradi va ushbu obyektlarga dissertatsiya 23-ilovasidagi kiberxavfsizlik obyektlari kiradi. Bunda, qasd jamoat xavfsizligiga bevosita yoki bilvosita qaratilganiga qarab, asosiy, qo‘shimcha va fakultativ bevosita obyekti «jamoat xavfsizligi» bo‘lgan kiberjinoyatlar o‘zaro farq qiladi. Biroq, barchasida kibertahdid yoki kiberhujum jamoat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

7. Kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda amalga oshirilishi kutilayotgan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar yoki ularning majmui **kibertahdid** bo‘lsa, **kiberhujum** ushbu tahdidning amalga oshirilishiga oid xarakat sanalishi nazarda tutilib, kibertahdid, kiberhujum, kiberxavfsizlik hodisasi, kiberhuquqbuzarlik, kiberjinoyat o‘zaro farq qilishi dissertatsiyada ko‘rsatib berildi va ularning tushunchalarining ta’riflari ishlab chiqildi;

8. Jinoyat kodeksining oltinchi bo‘limidagi boblar ushbu bo‘lim nomi va mazmuniga mos emasligi, obyekti turlicha ekanligi, «*jamiyat*» va «*jamoat*», «*jamiyat xavfsizligi*», «*jamoat xavfsizligi*» tushunchalarining o‘zaro farqi borligi sababli qonuniylikni ta’minlash maqsadida Jinoyat kodeksining oltinchi bo‘limining nomini quyidagicha bayon etish taklif qilinadi:

«Oltinchi bo‘lim. Jamiyat xavfsizligi va tartibiga tahdid soluvchi jinoyatlar».

9. Jinoyat kodeksining oltinchi bo‘limida taklif sifatida Jinoyat kodeksining XVII bobidagi «*Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar*», XVIII bobidagi «*Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar*», XIX bobidagi «*Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar*», XX bobidagi «*Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar*»ni ular avvalo jamoat, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlarning asosiy, qo‘shimcha, fakultativ bevosita obyekti jamiyat xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar ekanligidan kelib chiqib, qayta ko‘rib chiqish va XX[1] bobidagi «*Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar*» bir vaqtning o‘zida asosiy bevosita obyekti axborot texnologiyalari sohasi ekanligidan kelib chiqib, axborot texnologiyalari o‘z navbatida faqatgina jamoat yoki jamiyat xavfsizligiga oid tushuncha emas, balki **shaxs va davlatga bog‘liq bo‘lgan tushuncha ekanligidan kelib chiqib**, alohida oltinchi kichik bo‘lim sifatida quyidagicha shakllantirilishi taklif qilinadi:

«**Oltinchi kichik bo‘lim. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid jinoyatlar**»;

10. Kiberjinoyat faqatgina texnik vositalarning boshqa bir texnik vositalarga zarar keltirishi yoki ularga noqonuniy kirib olish orqali axborotni egallash, o‘zlashtirish va yaroqsiz holatga keltirish orqali sodir etiladigan qilmish emas, balki u shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga axborot orqali ham tahdid qiladigan jinoyat sanaladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlar, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar va kiberjinoyatlar o‘zaro farq qiladi. Shu sababli kiberjinoyatlar bilan axborot texnologiyalari bog‘liq bo‘lgan boshqa jinoyatlarni aralashtirib yubormaslik zarur hamda qonunchilikdagi xatoliklar bartaraf etilmog‘i darkor. Bunda, an’anaviy usullarda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar bilan yetarlicha kurashib bo‘lmaydi va nafaqat jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan sodir etilayotgan barcha kiberjinoyatlar bo‘yicha texnologik yechimlar ishlab chiqilishi darkor hamda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning eng samarali usuli bu sun’iy intellekt, «aqlli tizimlar»ga asoslangan raqamli nazorat va monitoringni to‘liq yo‘lga qo‘yish, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq;

11. O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik konsepsiyasi, qisqa, o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan milliy kiberxavfsizlik strategiyasi, ularni amalga oshirish rejasi (yo‘l-xarita) hamda ular asosida O‘zbekiston Respublikasining kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish konsepsiyasi, qisqa, o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasini qabul qilish zarur. 42-ilovaga muvofiq konsepsiya loyihasi tayyorlandi. Ta’kidlash kerakki bunda, yuqoridagi hujjatlar asosida jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi munosabatlar keng qamrovga ega ekanligi va ushbu munosabatlarni yetarlicha to‘liq tartibga solib qo‘yish uchun Axborot kodeksi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kodeksi, «Onlayn-platformalar va veb-sayt foydalanuvilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida», «Kiberbulling to‘g‘risida»gi, «Kiberagressiya to‘g‘risida»gi yoki «Kiberbullingga qarshi kurashish

to‘g‘risida»gi, «Sun’iy intellekt to‘g‘risida»gi, «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi «Jamiyat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan kiberjinoyatlar bo‘yicha yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash maqsadga muvofiq hamda xalqaro maydonda nafaqat jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar, balki barcha kiberjinoyatlar uchun ham dunyo davlatlari bir-biriga o‘xshash yoki bir xil jinoiy javobgarlikni belgilashi, sud-tergov amaliyotini birxillashtirishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyat ishlari yuzasidan anglo-sakson qonunchiligini tadbiq etish, romana-german qonunchiligiga qaraganda ko‘proq samara beradi, shu sababli ushbu ishlarda bu oilaga oid qonunchilikni qo‘llash orqali kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va bu borada kiberjinoyat uchun jazo muqararligini ta’minlash uchun aralash milliy qonunchilikni ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq etish maqsadga muvofiq;

12. Axborot tizimi, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya yoki internet tarmog‘ida yoki undan foydalanib va boshqa usullarda jinoyat sodir etganlikka oid Jinoyat kodeksiga kiritilayotgan har xil o‘zgartirish va qo‘shimchalarga oid turlicha amaliyotdan voz kechib, bir xil huquqiy va texnik jihatdan amaliyot to‘g‘ri bo‘lishi uchun ularning o‘rniga «*axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib*» so‘zlarini almashtirish maqsadga muvofiq. Zero, kiberjinoyatlar Jinoyat kodeksimizda nazarda tutilgan holatlardan tashqari boshqa usullar bilan ham sodir etilishi mumkin, shu sababli ularni bir xil bayon etish uchun mazkur taklifni amaliyotga kiritish joizdir.

II. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan taklif va tavsiyalar:

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan taklif va tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida» 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ–764-son Qonunining 3-moddasidagi «**kibermakon**», «**kiberxavfsizlik hodisasi**», «**kibertahdid**», «**kiberxavfsizlik obyekti**», «**kiberxavfsizlik subyekti**» tushunchalari **yuqorida biz tomonimizdan ta’kidlangan tushunchalarning ta’rifi bilan almashtirilishi** hamda **ushbu Qonunga qo‘shimcha ravishda «kiberjinoyat» va «kibermuhit» tushunchalarini** dissertatsiyaning 21-ilovasiga muvofiq ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining qonuni loyihasida nazarda tutilgan tahrirda kiritish taklif qilinadi.

Shuningdek, «kiberjinoyat», «kibermuhit», «kibermakon», «jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi axborot» va «jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar» uchun jinoiy javobgarlikni belgilashning ijtimoiy zaruriyatidan kelib chiqib, bu tushunchalarning ta’rifini biz tomonimizdan ta’riflangani kabi Jinoyat kodeksining VIII bo‘limi yoki yangi tahrirda qabul qilinadigan Jinoyat kodeksida ham aks ettirish maqsadga muvofiq.

2. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar uchun munosib javobgarlikni belgilash maqsadida mavjud resurs va ilg‘or xorijiy tajriba asosida

Jinoyat kodeksiga dissertatsiyaning 21-ilovasiga muvofiq axborot va kiberxavfsizlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish darkor;

3. Dastlabki bosqichda BMT Bosh Assambleyasining 2024-yil 24-dekabrdagi 79/243-son rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, keyingi bosqichlarda Yevropa Kengashining «Kiberjinoyatchilik to‘g‘risida» 2001-yil 23-noyabrdagi Konvensiya (Budapesht konvensiyasi) va uning 2 ta qo‘shimcha bayonnomalari va boshqa xalqaro hujjatlarga qo‘shimcha shartlar bilan a’zo bo‘lish va shu orqali xalqaro transchegeraviy munosabatlarda xorijiy davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilish hamda milliy qonunchilik bilan xorijiy va xalqaro jinoyat qonunchiligini o‘zaro birxillashtirish va yaqinlashtirish maqsadga muvofiq.

4. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining dunyo davlatlari tomonidan qabul qilinadigan BMTning «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Konvensiyasini ishlab chiqishi va uni BMT qabul qilishi uchun zarur tartib-taomillarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq;

5. Kibersug‘urta tizimi yo‘lga qo‘yilib, bunga oid qonunchilik to‘liq amaliyotga joriy qilinishi va kiberhuquqbuzarliklar, shu jumladan, kiberjinoyatlar natijasida yetkazilgan zararni hisoblash metodikasi, kiberjinoyatlar uchun sanksiyalarni belgilash tartibini qabul qilish kerak;

6. Kibermudofaa tizimi yo‘lga qo‘yilib, bunga oid qonunchilik to‘liq amaliyotga joriy qilinishi, kiberinqirozlarni sun’iy ravishda vujudga keltirish, unga qarshi kurashish va oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha yagona va yakdil tizim yo‘lga qo‘yilishi hamda kiberinqirozlarga nisbatan bardoshlilik indekslari va mezonlari ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi, vazirlik va idoralarning o‘xshash va takroriy vazifalari va funksiyalarini xatlovdan o‘tkazib, ularni birxillashtirish va tizimlashtirish darkor;

7. Shaxsga doir ma’lumotlar bazasi va bulutli texnologiyalarga oid majburiy maxsus yuridik va texnik talablarni belgilash, shaxs, jamiyat va davlatga doir ma’lumotlar bazasidan tashqari ularga doir raqamli ma’lumotlarning muhofazasini ham ta’minlash va ularga oid qonunchilik to‘liq ishlab hamda kibermuxitda, shu jumladan, kibermakonda raqamli nazoratni o‘rnatish tartib-taomillarini, shu jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining, shuningdek, xususiy sektor vakillarining aniq vazifa va majburiyatlari amaldagi qonunchilikda aniq belgilanishi darkor;

8. Raqamli nazoratdagi infratuzilmalarga nisbatan kiberhujumlar qachon, qaerda va kim tomonidan amalga oshirilayotganligini bilish, kiberjinoyatchilarni fosh etish uchun qurilmalarning MAC-adressiga oid tartibot belgilanishi va dissertatsiya 16-ilovasiga muvofiq tahrirda ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining alohida qarori qabul qilinib, ijroga qaratilishi darkor;

9. Dissertatsiyaning 17-ilovasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida raqamli nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom va ularning tarkibiy qismi bo‘lgan nizom, reglament va boshqa hujjatlar asosida raqamli nazoratni o‘rnatishning bitta usuli sifatida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasining ilovalari qabul qilinishi zarur va u O‘zbekiston

Respublikasining raqamli transformatsiyasi ustidan raqamli nazorat ta’minlanishiga xizmat qiladi;

10. Kiberxavfsizlik subyektlari tomonidan qonunchilik bo‘yicha olgan majburiyatlarini bajarmasligi bo‘yicha Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va Jinoyat kodeksida alohida javobgarlik chorasi belgilanishi shart;

11. Bolalarning shaxsiy akkaunt va profilini ochish huquqi vujudga kelishining aniq yoshi, ota-onalar, qonuniy vakillarning o‘z ehtiyotsizligi oqibatida jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan bolalari tomonidan sodir etilayotgan kiberjinoyatlar uchun ularga aniq ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilash kerak.

12. O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunida «sun’iy intellekt», «sun’iy intellekt texnologiyalari», «axborot texnologiyasi» tushunchasining o‘rniga «axborot-kommunikatsiya texnologiyalari», «axborot tizimi» tushunchasining o‘rniga «axborot-kommunikatsiya tizimi» tushunchasining ta’rifini berish va ushbu Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish zarur.

III. Kiberjinoyatchilik sohasida qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan taklif va tavsiyalar:

Kiberjinoyatchilik sohasida qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan taklif va tavsiyalar quyidagilardir:

1. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan taklif va tavsiyalarda nazarda tutilgan Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalardan iborat mazkur moddalardan tashqari boshqa moddalardagi qilmishlar ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar yoki kiberjinoyatlar bo‘lishi mumkin, biroq mavjud ijtimoiy munosabatlarning rivoji va ijtimoiy zaruriyati tufayli ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki tizimi yohud telekommunikatsiya tarmog‘i va vositasi orqali sodir etilishi holatini og‘irlashtiruvchi belgisi sifatida qabul qilish va JKning 56-moddasiga kiritilayotgan qo‘shimchadan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Kiberjinoyatlar, shu jumladan, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar bo‘yicha sud amaliyoti turlicha bo‘lmoqda va uni birxillashtirish zarur va buning uchun ushbu yo‘nalishda alohida maxsus O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorini qabul qilish darkor.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi va kiberjinoyatlarga oid qarorida O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi, «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunlarida va Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarida operator, provayder, shuningdek, foydalanuvchining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo‘yicha alohida majburiyati borligini va ushbu majburiyatning buzishi oqibatida bu turdagi jinoyatlar vujudga kelishiga sudlar e’tiborni qaratishi kerakligi bo‘yicha alohida tushuntirish berishi zarur va shu orqali mavjud amaliyotdagi bo‘shliq mavjud qonunchilik bilan to‘g‘ri yo‘naltirilgan holda, to‘ldirilishi mumkin.

4. Aloqa, axborotlashtirish, elektron hukumat, elektron raqamli imzo, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, telekommunikatsiya va boshqa sohalarga oid nazorat tadbirlarini o‘tkazish tartibini belgilash kerak;

5. Raqamli nazoratni amalga oshirish tartib-taomillari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilishi, aniq qonunchilik hujjatlari bilan majburiy qoidalar belgilanishi, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik to‘liq va to‘g‘ri o‘rnatilishi, majburiy interatsiya qilinadigan axborot tizimlariga qo‘yilgan talablarni belgilash va shundan foydalanib, zarur barcha axborot tizimlarini to‘liq integratsiya qilish, integratsiyalashuv jarayoni yakunlanguniga mavjud axborot tizimlarining yangi versiyalarini ishga tushirish, qo‘shimcha modul va funksiyalarni qo‘shishdan tashqari yangi axborot tizimlarini yaratish va joriy qilishga maratoriy e’lon qilish kerak, shundan keyin yagona raqamli platforma orqali kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rish darkor;

6. Respublika raqamli texnologiyalar ekspertiza markazini tashkil etish va uni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida o‘tkazilayotgan ekspertiza turlarini amalga oshiruvchi yagona davlat ekspertiza muassasasini belgilash hamda sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasining o‘rniga dalillarning olinishi, saqlanishi, to‘planishi, foydalanuvi, ishlov berilishida qonun buzilishi bo‘lmaganligi, dalillarning ishonchliligi va olingan manbalarning aniq va to‘g‘ri ekanligini ta’minlovchi **sud-kiber ekspertiza**, shuningdek, telekommunikatsiya tarmog‘i, telekommunikatsiya infratuzilmasi, axborot tizimi va kompyuter axboroti, dastur va dasturiy ta’minot, kriptografik hamda aloqa qamrovi va sifati ekspertiza turlari amaliyotga joriy qilinishi darkor;

7. «Kiberxavfsizlik», «Kiberxavfsizlik asoslari», «Kiberhuquq» kabi fanlar va kiberxavfsizlikka oid o‘quv dasturlari va qo‘llanmalarni ishlab chiqib, ularni boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta-maxsus va oliy ta’limda majburiy va uzluksiz o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish, yuridik va texnik fanlar bo‘yicha yagona kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassis yetishtiruvchi oliy ta’lim tashkilotini tashkil etish va eng muhimi, oliy ta’limda kadrlar tayyorlash uchun mavjud standart va klassifikator qayta ko‘rib chiqilishi, o‘quv dasturlari har bir kiberjinoyat uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlikka qarab, ushbu qilmishni fosh etish va jazo muqarrarligini ta’minlash uchun qanday yuridik va texnik xarakatlar kompleks tartibda amalga oshirilishi zarurligidan kelib chiqib amaliyotga joriy etilishi zarur;

8. Kibermuxitda, shu jumladan, kibermakonda raqamli nazoratni o‘rnatish uchun «**Jamoat xavfsizligining raqamli monitoringi**» kompleks axborot tizimini to‘liq ishga tushirish va unga barcha davlat organlari va tashkilotlari, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha kiberxavfsizlik subyektlarining axborot tizimlari ulanishi, ularning maxfiylik siyosatiga rioya etgan holda ular ustidan raqamli nazoratni amalga oshirish kerak;

9. Xalqaro va milliy kibermaydonda bo‘layotgan kiburxurujlar bo‘yicha xalqaro hamkorlik, murojaatlar bilan ishlash, kiberxurujlar bo‘yicha tezkor xabar berish, javoblar olish va qayta aloqa mavjud bo‘lgan 24/7 rejimda ishlovchi ishonch telefoni, aloqa markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda O‘zbekiston Respublikasidagi barcha axborot infratuzilmalarini xatlovdan o‘tkazish va muhim axborot infratuzilmalarining reestrini shakllantirish, ularning reestrini muntazam yuritib borilishini ta’minlash kerak;

10. Raqamli nazorat **«Jamoat xavfsizligining raqamli monitoringi» kompleks axborot tizimi** orqali axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi

toifalangan holda, amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hamda respublikadagi barcha axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va banklari, telekommunikatsiya tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlari o‘zaro integratsiya qilinib, raqamli nazorat o‘rnatilganidan keyin **ushbu tizimdagi tegishli axborot tizimining** sun’iy intellekti orqali jinoyatchilik va kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, kelgusida qachon va qayerda jinoyatlar sodir etilishi mumkinligi bo‘yicha bashorat qilish, prognoz qilish tizimi yo‘lga qo‘yilishi darkor va u orqali mavjud resurslarni qachon va qaerga olib borish va shu orqali kiberjinoyatchilikni fosh etishning samarali texnik yechimi va tizimini yo‘lga qo‘yish mumkin.

11. Axborot xavfsizligi yoki kiberxavfsizlik talablarini foydalanuvchiga buzgan taqdirda telekommunikatsiya tarmoqlari orqali avtomatik sun’iy intellekt va vakolatli organlar tomonidan foydalanuvchiga bepul sms-xabarnoma yuborib, unda uning huquqbuzarligi va uni to‘xtatishi zarurligi bo‘yicha eslatma taqdim etish, yuborilgan sms-xabarnomani olgan bo‘lsa-da, o‘z qilmishini davom ettirgan shaxslarga nisbatan og‘irroq jazo qo‘llash va o‘z qilmishini davom ettirishdan ixtiyoriy qaytgan shaxslarni javobgarlikdan ozod etish, yuborilgan sms-xabarnoma va uni haqiqatan ham huquqbuzar olganligi faktni tasdiqlovchi ma’lumotlarni dalil sifatida qabul qilish tartibi yo‘lga qo‘yilishi shart.

12. Xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik bo‘yicha nufuzini oshirish maqsadida kiberxavfsizlikni ta’minlash reytingi, IT-audit yo‘lga qo‘yilib, xalqaro jinoyat huquqida kiberjinoyatlarga oid yagona namunadagi terminologiya tanlanishi hamda model qonunlar qabul qilinishi hamda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dunyo standartlarga javob beruvchi milliy texnik vosita, tarmoq, qurilma, tizim, dastur va dasturiy ta’minot ishlab chiqarilishi yoki tayyorlanishi va amaliyotga to‘liq joriy etilishi zarur;

13. Moliya va bank sohasida raqamli operatsiyalarning barqarorligini ta’minlash, veb-sayt va axborot tizimlarining 41-ilovaga muvofiq raqamli izlarning saqlanishi yo‘lga qo‘yilib, uning hisobini yuritish tartiвлариni belgilash hamda jamoat xavfsizligi va kiberxavfsizlik to‘liq va yetarlicha ta’minlanishi uchun axborot-kommunikatsiya tizimlarining barchasini to‘liq integratsiya qilish maqsadga muvofiq emas, balki ularni toifalash orqali o‘zaro integratsiyasini va uning raqamli nazoratini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur xulosalarimiz tadqiqot ishida asoslantirilgan bo‘lib, ushbu takliflarning qabul qilinishi jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha yagona nazariy, ilmiy, amaliy, huquqiy, texnik, tashkiliy tomondan yagona amaliyot vujudga kelishiga, qonunchilik hujjatlari takomillashishiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari, shu jumladan, jamoat xavfsizligi va kiberxavfsizlik ta’minlanishiga, bu boradagi islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АНОРБОЕВ АМИРИДДИН УЛУҒБЕК ЎҒЛИ

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ, УГРОЖАЮЩИХ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право

Автореферат
диссертации доктора юридических наук (DSc)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора юридических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии (ВАК) при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.1. DSc/Yu235.

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте информационно-образовательного портала «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович,** доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Уразалиев Мурод Кораевич** доктор юридических наук, профессор
	Турғунбоев Элбекжон Одилжонович доктор юридических наук
	Акром Икромович Тошпўлатов доктор юридических наук, доцент
Ведущая организация:	**Институт криминологических исследований Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «12» декабря 2025 года в 11-00 часов на заседании Научного совета № DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 по присуждению ученых степеней при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан. (Адрес: 100211, Ташкентская обл., Зангиотинский район, поселок Чорсу. Тел.: (99871) 230-32-71; факс: (99871) 230-32-50; info@mgjxu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (зарегистрирован за № _____). (Адрес: 100121, Ташкентская обл., Зангиотинский район, поселок Чорсу. Тел.: (99871) 230-32-71; факс: (99871) 230-32-50)

Автореферат диссертации разослан «28» ноября 2025 года.

(Реестр протокола рассылки № 21 от «28» ноября 2025 года)

Д.М.Миразов
Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Ж.Д.Ахмедов
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Ш.Х.Зулфикаров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире цифровизация всех сфер и отраслей, информационные системы и ресурсы, критически важная информационная инфраструктура, телекоммуникации, включая глобальную сеть Интернет, базы персональных данных, информационно-телекоммуникационная инфраструктура, информационно-коммуникационные технологии, в том числе искусственный интеллект, кибер-, нано-, био- и другие технологии и технические средства – всё это подвержено серьёзной угрозе со стороны киберпреступлений, что ставит под угрозу общественную безопасность. В 2023 году одна кибератака происходила каждые 39 секунд, а в настоящее время – уже каждые 14 секунд[1]. Согласно другим источникам, кибератаки совершаются каждую секунду[2]. В результате этого, в 2023 году 71% организаций по всему миру стали жертвами программ-вымогателей. В настоящее время 80% всех инцидентов в сфере кибербезопасности связаны с деятельностью преступных группировок[3]. Ущерб, нанесённый мировой экономике, составил 3 трлн долларов в 2018 году, 3,5 трлн долларов в 2019 году, 4,2 трлн долларов в 2020 году, 6 трлн долларов в 2021 году, 7 трлн долларов в 2022 году, 8,4 трлн долларов в 2023 году и 9,5 трлн долларов в 2024 году[4]. Ожидается, что в 2025 году эта цифра достигнет **10,5 трлн долларов**[5], в 2026 году – **20 трлн долларов**, в 2027 году – 22 трлн долларов, в 2028 году – 24 трлн долларов, а в 2029 году – 26 трлн долларов[6]. Удвоение ущерба к 2026 году подчёркивает настоятельную необходимость немедленного и скоординированного реагирования со стороны всех государств мира путём совместной борьбы с киберпреступностью как международным трансграничным преступлением и проведения широкомасштабных реформ в этой области.

Во мире в целях предотвращения экономических кризисов, возникающих вследствие киберпреступлений, и устранения их негативных последствий, защиты интересов личности, общества и государства, обеспечения общественной безопасности и кибербезопасности государства осуществляют широкомасштабные меры по всесторонней борьбе с указанными кибертрансграничными преступлениями на основе международных документов. Для противодействия данным киберпреступлениям в системе образования проводятся кардинальные реформы, подготавливаются специалисты, специализирующиеся в области кибербезопасности, создаются специальные лаборатории, высшие

---

[1] https://www.datensicherheit.de/2024-2025-cyber-attack-companies-14-seconds.
[2] https://cybermap.kaspersky.com/ru/stats.
[3] https://www.websiterating.com/ru/blog/research/cybersecurity-statistics-facts/#sources.
[4] https://newsletter.radensa.ru/archives/4840.
[5] https://www.cenlanow.com/business/press-releases/ein-presswire/674883055/cybercrime-damages-to-cost-the-world-9-5-trillion-usd-in-2024/.
[6] https://www.statista.com/forecasts/1280009/cost-cybercrime-worldwide#:~:text=The%20global%20cost%20of%20cybercrime,trillion%20U.S.%20dollars%20in%202022.

образовательные и научно-исследовательские учреждения, используются искусственный интеллект и автоматизированные «интеллектуальные системы» для прогнозирования и анализа киберинцидентов, выделяются благотворительные, грантовые и бюджетные средства на обеспечение кибербезопасности, принимаются меры по совершенствованию и унификации законодательства в сфере трансграничных отношений, посредством чего осуществляется их систематизация, а также выстраивается единая правовая и техническая практика – от технических и технологических процессов до юридических вопросов. Всё это, в свою очередь, приобретает актуальное значение для нахождения научно-теоретического и практического решения задач обеспечения общественной безопасности.

В нашей Республике посредством нормотворчества и цифровизации осуществляются масштабные реформы по обеспечению общественной безопасности, кибербезопасности и верховенства закона. В частности, с целью создания безопасной киберсреды, включая киберпространство, в 2017–2025 годах было принято около 150 законодательных актов и реализовано около 500 масштабных мероприятий. Однако дальнейшее развитие цифровых технологий, а также то обстоятельство, что в уголовном законодательстве нашей страны ответственность за киберпреступления, угрожающих общественной безопасности, не определена в достаточной степени и в этой сфере до сих пор сохраняются «правовые пробелы», приводит к возникновению «латентных» киберпреступлений, число, виды и масштабы причиненного ущерба которых с каждым днем возрастают, а также к увеличению количества «коллизионных ситуаций» в процессе правоприменения. Так, только в Республике Узбекистан было зарегистрировано совершение деяний с использованием информационных технологий: в 2020 году – 863, в 2021 году – 785, в 2022 году – 7 570, в 2023 году – 6 450, в 2024 году – 58 800. Таким образом, количество киберпреступлений в 2024 году по сравнению с 2020 годом возросло примерно в 68,13 раза. В связи с этим, возрастающая угроза киберпреступлений общественной безопасности обусловливает необходимость достаточного правового регулирования данной сферы.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению приоритетных задач, предусмотренных нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан, включая, Уголовный кодекс (1994 г.), Законы «Об информатизации» (2003 г.), «Об электронном правительстве» (2015 г.), «О персональных данных» (2019 г.), «О кибербезопасности» (2022 г.), «О телекоммуникациях» (2024 г.); Указы Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции общественной безопасности Республики Узбекистан и мерах по её реализации» (2021 г.), «О Стратегии «Узбекистан – 2030» (2023 г.), «О мерах по эффективной организации выполнения приоритетных задач по дальнейшему совершенствованию системы борьбы с коррупцией» (2025 г.), «О мерах по коренному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства» (2018 г.), «О дополнительных мерах по совершенствованию системы обеспечения кибербезопасности объектов

критической информационной инфраструктуры Республики Узбекистан» (2023 г.), «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года» (2024 г.), «О мерах по дальнейшему усилению деятельности по борьбе с преступлениями, совершаемыми с использованием информационных технологий» (2025 г.); постановления Кабинета Министров «О мерах по дальнейшему совершенствованию межведомственного электронного взаимодействия и обмена информацией» (2022 г.), «Об утверждении некоторых нормативно-правовых актов в области обработки персональных данных» (2022 г.); положения Центрального банка «Об утверждении Положения о порядке осуществления контроля и наблюдения за деятельностью операторов платежных систем и платежных организаций» (15.05.2023 г., рег. №3434), «Об утверждении Положения о мерах по обеспечению информационной безопасности и кибербезопасности платежных систем операторов платежных систем и поставщиков платежных услуг и профилактики правонарушений, совершаемых посредством цифровых технологий» (21.05.2024 г., рег. №3513); приказы председателя Службы государственной безопасности «Об утверждении Положения о порядке оценки уровня обеспечения кибербезопасности объектов важной информационной инфраструктуры и кибербезопасности Республики Узбекистан» (22.09.2023 г., рег. №3458), «Об утверждении Временного положения о категорировании важных объектов информационной инфраструктуры Республики Узбекистан и формировании их единого реестра» (11.11.2024 г., рег. №3570), «Об утверждении Положения о порядке проведения экспертизы на соответствие требованиям кибербезопасности» (14.11.2024 г., рег. №3573), «Об утверждении Положения о порядке сертификации аппаратных, аппаратно-программных и программных средств, применяемых для обеспечения кибербезопасности информационных систем и ресурсов» (14.11.2024 г., рег. №3574); приказ министра юстиции «Об утверждении типового порядка обработки персональных данных» (15.11.2023 г., рег. №3478), а также другими действующими нормативно-правовыми актами в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан I «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Уголовно-правовые аспекты киберпреступлений, угрожающих общественной безопасности, частично изучаются высшими учебными заведениями и научно-исследовательскими учреждениями зарубежных государств. В частности, в Германии такими исследованиями занимаются Институт Фраунгофера, Кёльнский институт по изучению киберпреступности, Германский институт информационного, телекоммуникационного и медиа-права; в Норвегии – Научно-исследовательский центр «Компьютеры и право» при Университете Осло, в Великобритании – Центр безопасности

